O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TASDIQLAYMAN

Farg‘ona davlat texnika universiteti

rektori_____U.R.Salomov

“____”_____2025-yil

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit»
ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlarni

DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona – 2025-yil

Ismanov I.N., Nurmatov O.T., Ermatov A.A., Xojayev A.S. 08.00.07 – 08.00.07. – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtixoni dasturi. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2025. – 24 b.

Imtixon dasturi va baholash mezonlari “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilingan 2025-yil 8-noyabr, bayon №3 . Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2025-yil “_____” _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

Ushbu malakaviy imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

i.f.d., prof. Ismanov I.N.
DSc, dotsent Xojayev A.S.
PhD, dotsent Nurmatov O.T.
PhD., dotsent Ermatov A.A.

Taqrizchi:
Qurbonov Z.N. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

© Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2025-yil

KIRISH

Respublikamizda bank-moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko‘lamini kengaytirish masalalari eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘tgan yillar mobaynida mustaqil taraqqiyot davrda iqtisodiyotda bozor islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va bank-moliya tizimi puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur’atlar bilan o‘sishini, inflyasiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilgor xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investisiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish[1].

ASOSIY QISM

I - BO‘LIM. MOLIYA

Moliyaning kelib chiqishi, uni davlat va pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rni. Moliya to‘g‘risidagi fanning rivojlanishi. Davlat moliyasi nazariyasi. Moliya fanining asoschilari (A.Smit. D.Rikardo). Moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalari. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning roli. Moliyaning mohiyati va funksiyalari to‘g‘risida ilmiy qarashlar. Moliyaviy resurslar. Moliyaning iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

O‘tish iqtisodiyoti davrida moliyaning xususiyatlari. Iqtisodiy islohotlarni

[1] O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son.

chuqurlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasining moliyasi. Iqtisodiyotni tartibga solishda moliyaning roli va tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tartibga solishda moliyadan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari.

Moliya tizimi: xususiyati, sohalari va tarmoqlari. Moliyaviy siyosat. Pul va moliyaviy oqimlar, ularning o‘zaro bog‘likliklari.

Moliyaviy boshqaruv organlari. Boshqaruv mexanizmlari: prognozlashtirish, rejalashtirish va nazorat. Moliyaviy institutlar va bozorlar, ularning funksiyalari. Moliyaviy bozorlar orqali resurslarni qayta taqsimlash xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida moliyaning qayta taqsimlash funksiyasi. Moliyaviy nazorat o‘tkazishning shakllari va usullari. Soliq va bojxona tizimlari. Soliqlar va bojlarni undirishning moliyaviy-huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasining moliya tizimi. O‘zbekiston moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlari. Moliya tizimi soha va bo‘g‘inlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy agentlarning moliyasini shakllantirish va foydalanish mexanizmlarining umumiy tavsifi. Uy xo‘jaligi moliyasini tartibga solishning xususiyatlari.

Iqtisodiy agentlar moliyasini Davlat byudjeti bilan aloqalari. Byudjet tizimini boshqarish tamoyillari.

Turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasining xususiyati va funksiyalari. Ularni shakllantirish tamoyillari va mexanizmlari. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasining mazmuni va ularni tashkil etish tamoyillari. Davlat korxonalari moliyasi va ularni tashkil etish. Nodavlat shakldagi korxona va tashkilotlar moliyasi va ularni tashkil etish. Xususiy tadbirkorlik moliyasi. Notijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi. Korporatsiyalar moliyasini shakllantirish xususiyatlari. Korxonaning moliyaviy tahlili va moliyaviy strategiyasi. Davlat, aksiyadorlik, xususiy, ijara va boshka korxonalar moliyalari.

Xo‘jalik sub’yektlari ixtiyorida shakllanadigan fondlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tafovutlari. Nomarkazlashgan fondlarning moliyaviy manbalari. Xorijiy investisiyali korxonalar moliyaviy munosabatlari. Ustav kapitalining shakllanish manbalari. Real sektorda faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zaruriyati.

Davlatning moliyaviy siyosati. Moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari. Moliyaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning roli. Moliyaviy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari. Davlat moliya siyosati, xo‘jalik sub’yektlari moliya siyosati. Moliyaviy siyosat strategiyasi va taktikasi. Moliyani Davlat tomonidan tartibga solish. Makro darajada moliyani boshqarish. O‘tish davrida iqtisodiyotni moliyaviy sog‘lomlashtirish shakllari. Moliyaviy mexanizm, uning tarkibiy qismlari va elementlari. Moliyaviy dastaklar va rag‘batlantirish tizimi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida moliyaviy mexanizmlarning qayta shakllanishi. Turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasini boshqarish. Korporativ boshqaruv. Davlat moliyaviy nazoratining turlari va uni amalga oshiruvchi organlar. Moliyaviy nazoratni tashkil etish. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida moliyaviy nazoratning roli va ahamiyati. Nazorat tizimi samaradorligini oshirish yo‘llari. Auditorlik nazoratining barpo etilishi va rivojlanishi. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy siyosati. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro kapitallar bozori bilan aloqalari.

Byudjetning xususiyati va roli. Unitar va federativ davlatlarning byudjet tuzilmasi va tizimi. O‘zbekiston Respublikasining byudjet tuzilmasi va tizimi. Byudjet tizimi faoliyatining asosiy tamoyillari. Biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar. Davlat byudjeti va oila byudjetini loyihalashtirishdagi tafovutlar. Byudjet tizimining alohida tarmoqlari o‘rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishi. Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tasnifi. Byudjet defisitini moliyalashtirish manbalari tasnifi. Turli darajadagi boshqaruv organlarining byudjet huquqlari. Davlat qarzlari turlarining tasnifi.

Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan respublikamizning yirik tijorat banklarining

kapitallashish darajasini oshirish, Hukumat, mahalliy xokimiyati organlari tomondan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Rivojlangan davlatlarda byudjet jarayoni. Byudjet jarayonining mazmuni va makroiqtisodiy asosi. Byudjet jarayonini tashkil etish asoslari va uning vazifalari. Byudjet rejalashtirilishi, ishtirokchilari va uni tashkil etish tamoyillari. Byudjet jarayoni bosqichlari. Davlat byudjetini shakllantirish jarayoni. Byudjet loyixasini tuzish. Qonun chiqaruvchi organlarda byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash. Byudjetni ijro etish tizimi va uning nazorati. Byudjet ijrosi va uni tasdiqlash.

Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va roli. Turli iqtisodiyotlarda byudjet tuzilmasi. Xorijiy mamlakatlarda Davlat byudjetining roli. Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va strukturasi. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tavsifi. Subsidiyalar, subvensiyalar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. O'zbekistan Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tarkibi va strukturasi. Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar. Turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Byudjetni tuzish va ijro etish. Byudjet defisiti, qoplash manbalari va ularni tartibga solish mexanizmlari. Byudjet profisiti.

Byudjet daromadlaring strukturasi. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni. Soliqlarning iqtisodiy tabiati va funksiyalari. Respublika byudjeti daromadlari. Mahalliy byudjetlar daromadlari. O'zbekiston Respublikasi sub'yektlari byudjetlarining daromadlari. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish zaruriyati.

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Byudjetning soliqsiz daromadlari. Byudjet xarajatlarining mazmuni. Byudjet krediti, subsidiyalari, subvensiyalari, dotatsiyalari va investisiyalari. Rezerv (zahira) fondi.

Mahaliy byudjetlarning daromadari va xarajatlarini muvozanatlashgan uolda tasdiqlashning zarurati. Davlat kreditining zarurligi, uning mohiyati va funksiyalari. Davlat kreditining mazmuni va ahamiyati. Davlat krediti shakllari. Davlat kreditini boshqarish. Davlat qarzlari tasnifi. Davlat qarzining turlari va takomillashtirish yo'llari. Davlat qimmatbaho qog'ozlari va ularning Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda va defisitini qoplashdagi roli.

Davlat qimmatli qog'ozlari bozori va uni foiz stavkalarini tartibga solishdagi ahamiyati. Makroiqtisodiy tartibga olish va davlat qimmatbaho qog'ozlari bozori.

Markaziy bankning hukumat kreditlari va ularning pul aylanmasiga ta'siri. Davlat krediti va uning O'zbekiston Respublikasidagi xususiyatlari.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning iqtisodiy mohiyati va ularni moliya tizimidagi ahamiyati. Moliya tizimida byudjetdan tashqari va boshqa tarmoqlar o'rtasidagi bog'liqliklari. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkil etish sabablari va ularning turlari. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni shakllantirish manbalari va mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari.

Davlat mablag'lari hisobidan banklarning kapitallashish darajasini oshirish, qishloq joylarda uy-joy qurilishi hajmini oshirish.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining G'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq G'aznachilikning vazifalari. G'aznachilik tizimiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyatlar, O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar o'rtasida hamkorlikdagi faoliyat.

G'aznachilik tizimiga o'tishning ob'yektiv zarurligi. G'aznachilik tizimi joriy etilgandan keyingi dastlabki moliyaviy samaralar. Xorijiy davlatlarda G'aznachilikning asosiy vazifalari. Byudjet ijrosining asosiy bosqichlarida Davlatning moliyaviy nazorati. Byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni nazorat qilishda G'aznachilik organlarining asosiy vazifalari. Moliya va G'aznachilik organlari vazifalarining taqsimlanishi.

Byudjet-moliya siyosatini takomillashtirish, resurslar va energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobidan tejamkorlik rejimini yanada qat'iylashtirish.

II - BO‘LIM. PUL MUOMALASI VA KREDIT

Pulning mohiyati va namoyon bo‘lish shakllari. Pulning miqdoriylik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi. Metall pullar nazariyasi. Zamonaviy monetarizm. J.M.Keynsning pullarga talab va pullar taklifi xususidagi nazariy qarashlari.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida pulning roli. Pulning paydo bo‘lishi. Qog‘oz pullar. Kredit pullari. Pullarning oltin bilan ta’minlanishi. Banknotalar emissiyasi.

Ichki talabni rag‘batlantirishga qaratilgan pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish yo‘llari.

Pul muomalasi tushunchasi. «Pul aylanmasi» tushunchasining mazmuni. Pul aylanmasining tarkibi: naqd va naqdsiz pul aylanmasi. Pul muomalasi qonuni. Pulga bo‘lgan talab va taklif. Pul massasining tarkibi va dinamikasi. Pul aylanishining sur’ati va uning pul massasiga ta’siri. Pul agregatlari va ularning tavsifi. Pulning qadrsizlanishi va uning asosiy sabablari. Inflyasiya sabablari, turlari va oqibatlari.

O‘zbekistonda inflyasiya va inflyasion jarayonlar: uning o‘ziga xos xususiyatlari; inflyasiyaga qarshi kurash tadbirlari; inflyasiyani yuzaga keltiruvchi nomonetar va monetar omillar.

O‘zbekiston Respublikasida naqd pul muomalasining o‘ziga xos xususiyatlari. Banklarning kassa aylanmasini prognozlash. O‘zbekistonda naqd pul harakatini tashkil etish va uni nazorat qilish.

Globallashuv sharoitida jahon xo‘jaligida real qiymatga ega bo‘lmagan pul xajmining ko‘payishi sabablari va uning oldini olish yo‘llari. «Pul tizimi» tushunchasining mazmuni. Pul tizimining asosiy shakllari: bimetallizm, monometallizm, oltinga almashinmaydigan kredit pullari tizimi. Pul tizimining asosiy elementlari. Pulning turlari. Qog‘oz pullar, kelib chiqishi va qadrsizlanish sabablari. Kredit pullari, veksel va veksel muomalasi. Banknotalar. Cheklar va chek muomalasi. Plastik kartochkalar. Pul emissiyasi tartibi. Pul multiplikatori. Pulning xarid qobiliyati va uning barqarorligini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi: milliy pul birligi «so‘m»ning barqarorligini mustahkamlash istiqbollari.

Pul mablag‘larining ulkan emissiyasi natijasida muomalada ortiqcha pul massasining paydo bo‘lishining salbiy oqibatlari va unga yo‘l qo‘ymaslik choralari.

Kreditning mohiyati. Kreditning funksiyalari. Kreditning shakllari va turlari.

Bank krediti va uning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishi. Tijorat krediti va uning rivojlantirish istiqbollari. Ijtimoiy-yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat krediti.

Ssuda kapitali va kredit. Ssuda foizining mazmuni va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar. Ssuda foizining me’yori. Pul-kredit orqali tartibga solish tizimida Markaziy bankning foiz siyosati.

Ssuda kapitallari bozori. Ssuda kapitallari bozorining mohiyati va funksiyalari. O‘zbekiston Respublikasida ssuda kapitallari bozorining shakllanishi va rivojlanishi.

Tijorat banklari kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar salmog‘ini yanada oshirish chora-tadbirlari. Qishloq joylarida uy-joy qurilishini kreditlashni kuchaytirish yo‘llari.

Banklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining rivojlanishida banklar rolining kuchayishi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»ga qonuni.

Markaziy bank faoliyatining maqsadi va funksiyalari. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash - Markaziy bankning bosh maqsadi. Iqtisodiyotni pul-kredit tizimi orqali tartibga solishda Markaziy banklarning roli.

Tijorat banklarining funksiyalari va turlari. Moliyaviy vositachilik - banklarning asosiy faoliyati. Moliya bozorlarini tartibga solish va erkinlashtirish sharoitida banklar. Banklar - O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish lokomotividir. Banklarni tarkibiy tashkil etish va boshqarish. Bank aksiyadorlik korxonasi sifatida. Tijorat banklarining Markaziy bank bilan o‘zaro munosabatlari. Markaziy bank banklarning banki sifatida. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish mexanizmi.

Tijorot banklari resurslarining depozitli manbalari. Tijorat banklari resurslarining depozitsiz manbalari. Tijorat banklarining umumiy kapitali va uning funksiyalari. Umumiy kapitalning tarkibi. Asosiy kapital va uning tarkibi. Qo‘shimcha kapital va uning tarkibi. Kapitalni yetarli darajasini tavsiflovchi moliyaviy koeffisiyentlar.

Aholining pul mablag‘larini banklarga jalb etish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.

Depozitlarga to‘lanadigan foizlar va ularga ta’sir qiluvchi omillar.

Bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish yo‘llari. Aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning banklardagi bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb etishni ko‘paytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

Pul aylanmasi tushunchasi. Naqd pullik va naqd pulsiz hisob-kitoblar. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy shakllari - to‘lov topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar; - to‘lov talabnomasi bilan hisob-kitoblar; - akkreditivlar bilan hisob-kitoblar; - inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar; - cheklar bilan hisob-kitoblar.

To‘lov aylanmasining yangi vositalari: plastik kartochkalar, veksel.

Faktoring va uning O‘zbekistonda foydalanish amaliyoti.

To‘lovsizlik muammosining asosiy sabablari, oqibatlari va ularni hal qilish yo‘llari.

Xo‘jalik sub’yektlarini kreditlash - banklarning asosiy vazifasi. Bank aktivlari tarkibida kreditlar. Bank kreditlashining tamoyillari. Tijorat banklarining kredit siyosati. Kreditlash ob’yektlari va sub’yektlari. Qarz oluvchining kreditga layoqatliligi.

Tijorat banklarining kredit portfeli va uni baholash.

Kreditning qaytarilishi va uni ta’minlash yo‘llari. Garov va garov mexanizmlari. Kafolat. Kreditlashda risklar. Foizli risk va uning kelib chiqish sabablari. Sug‘urta riski. Risklarni baholash va ularni pasaytirish yo‘llari va ular sifatining tasnifi.

Kredit portfelini diversifikatsiyalashning maqsadi. Kredit portfelini diversifikatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qisqa muddatli kreditlashning zamonaviy usullari. Kredit liniyalarini ochib va alohida ssuda schyotidan kreditlashning tavsiflari. Kontokorrent shaklida kreditlash. Overdraft bo‘yicha kreditlash. Overnayt. Lombard krediti. Ipoteka va ipotekali kreditlash. Iste’mol krediti va uni rivojlantirish istiqbollari. Mikrokreditlash va uning xususiyatlari. Qishloq xo‘jalik sub’yektlarini kreditlash va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli kreditlar: kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish usullari. Kredit qaytarilmagan holatlarda zahiralarni tashkil qilish tartibi.

Uzoq muddatli kreditlashda investision loyihalarning samaradorligini baholash.

Kredit shartnomasining mazmuni, tomonlarning huquq va majburiyatlari.

Iqtisodiyotning real sektori hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida ryespublikamiz banklari tomonidan berilayotgan kreditlari hajmini yanada oshirish yo‘llari.

Tijorat banklari investision faoliyatining tavsifi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli investisiyalar. Investision loyihalarni moliyalashtirish.

Investision loyixalar samaradorligini iqtisodiy baholash. Sof diskontli daromad. Investision loyihalarni moliyalashtirish manbalari. Investision loyihalarga bank kreditlari.

Banklarning portfelli investisiyalari: maqsadi va vazifalari. Qimmatli qog‘ozlar bozorida bank operatsiyalari. Banklarning trast operatsiyalari. O‘zbekistonda banklarning investision operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari.

Investision loyihalarni moliyalashtirish jarayonida banklarning faolligini oshirish yo‘nalishlari. Tijorat banklarini yirik investisiya institutlariga aylantirishning dolzarb masalalari.

Investisiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati. Investision loyihalar: mohiyati va mazmuni.

O‘zbekiston Respublikasida Davlatning investision siyosat dasturi. Investision biznes-rejalashtirish. Investision loyixalar ekspertizasi va kompleks tahlili. Investision loyihalar risklarini kamaytirishda kompleks ekspertizaning roli. Investision loyihalar samaradorligining tahlili (moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy).

Loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish. Loyihaviy moliyalashtirishda monitoring.

Alohida murakkab investison loyixalarni moliyalashtirish xususiyatlari. Loyihaviy moliyalashtirishning kamchiliklari va afzalliklari.

Pul-kredit siyosati - makroiqtisodiy tartibga solish vositasi sifatida. Pul-kredit orqali tartibga solishning Keynscha va monetaristik konsepsiyalari. Makroiqtisodiy tartibga solish tizimida monetar va fiskal-byudjet siyosati.

Pul-kredit orqali tartibga solishda Markaziy bankning roli. Pul-kredit orqali tartibga solish instrumentlari.

Qayta moliyalash siyosati. Qayta moliyalash stavkasi va uning depozit va kredit stavkalarini shakllanishidagi roli.

Majburiy zahira siyosati va uning tijorat banklari kredit salohiyatiga ta'siri.

Ochiq bozor siyosati va uning muomaladagi pul massasining dinamikasiga ta'siri.

Pul-kredit orkali tartibga solish tizimida valyuta siyosati va valyuta orqali tartibga solish.

Pul massasi ustidan nazorat. Monetar indikatorlar va ularning tavsifi. Pul massasini pul bozori orqali boshqarish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi.

Ichki talabni moliyaviy rag'batlantirish, banklarning kapitallashish darajasini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha belgilangan vazifalar.

Bank faoliyatini tashkil etish va banklarni boshqarish tuzilmasi.

Bank faoliyatini tartibga solish va nazorat. Tijorat banklari resurslarini boshqarish.

Likvidlilikni ta'minlash – bank resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi.

Bank aktivlarini boshqarish. Aktivlarni boshqarishning maqsadi va vazifalari. Tijorat banklari aktivlarini boshqarish usullari. Bank risklari va ularning turlari. Risklarni baholash va boshqarish usullari. Aktivlarni diversifikatsiyalash - bank risklarini kamaytirish va daromadlilikni ta'minlashning asosiy sharti sifatida.

Tijorat banki foydasi va rentabelligi. Foydani ko'paytirish yo'llari. Bank foydasini taqsimlash. Bankning foiz siyosati. Tijorat banklari faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari.

Tijorat banklari faoliyatida korporativ boshqaruvni takomillashtirishning o'rni.

Tijorat banklari faoliyatini baholash mezonlarini o'zgartirish. Uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalarni jalb etish orqali oshirish yo'llari.

Bank ishida marketingning mohiyati va xususiyatlari. Banklarning maqsadli bozorlari – mijozlar bozori hamda bank mahsulotlari va xizmatlari bozori. Bankdagi rejalashtirish tizimi. Bank faoliyatining joriy va strategik rejasi. Strategik rejaning mazmuni. Strategik rejalashtirishga bo'lgan turlicha yondashishlar. Rejalashtirish bosqichlari. Marketingni rejalashtirish. Rejalashtirish tizimiga bo'lgan talablar.

Marketingni rejalashtirish. Mahsulot strategiyasi. Narx strategiyasi. Mijozlarga bank mahsulotlari va xizmatlarini yetkazib berish tizimi sohasidagi strategiya. Kommunikatsiya strategiyasi. Marketingda risk strategiyasi. Risk strategiyasini ishlab chiqish.

Bankdagi marketing bo'yicha nazorat tizimi. Nazorat jarayoni bosqichlari. Marketing bo'yicha nazorat turlari. Samarali nazoratning asosiy qirralari.

Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash jarayoni monitoringi. Zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirishda bank marketingining rolini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar.

Inflyasion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va inflyasion targetlashga o'tish. Inflyasiyani pasaytirish va narxlar barqarorligini ta'minlash.

III - BO‘LIM. QIMMATLI QOG‘OZLAR VA FOND BOZORI

Qimmatli qog‘ozlar zamonaviy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy kategoriyasi sifatida.

Qimmatli qog‘ozlarning paydo bo‘lishi va evolyusiyasi. Qimmatli qog‘ozlarning turlarini turkumlanishi. Bozor iqtisodiyotida qimmatli qog‘ozlarning funksiyalari.

Katta spekulyativ o‘yinlar va yangi moliyaviy “ko‘piklar”ning yuzaga kelishi sabablari va ularni oldini olish chora-tadbirlari.

Aksiyalarning qo‘llanilishi va mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi emitentlari tomonidan chiqariladigan turli xildagi aksiyalarning klassifikatsiyam va tarkibi.

Obligatsiyalarning mazmuni va qo‘llanilishi. Turli xildagi aksiyalarning klassifikatsiyasi. Obligatsiyalar daromadliligini baholash uslubi. Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan jamg‘arma sertifikatlarning mazmuni va qo‘llanilishi. O‘zbekiston Respublikasida bank sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish xususiyatlari.

Veksellarning mazmuni va qo‘llanilishi.

Banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash orqali ular tomonidan berilayotgan uzoq muddatli kreditlarning hajmini oshirish.

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning qo‘llanilishi va funksiyalari. Opsionlarning fundamental xususiyatlari va ularning klassifikatsiyasi. Varrantlarning mazmuni va qo‘llanilishi. Opsion shartnoma va varrant o‘rtasidagi farq.

Qarz munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar va ularning turlari.

Ulushli qimmatli qog‘ozlar va aksiyadorlik jamiyati faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Fyucherslarning fundamental xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasida hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.

Davlat qimmatli qog‘ozlarining funksiyalari va qo‘llanilishi. Davlat qimmatli qog‘ozlarining turlari.

O‘zbekiston Respublikasida davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining qo‘llanilishi, mazmuni va chiqarilish tartibi. O‘zbekiston Respublikasida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining ishtirokchilari. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining shartlari va chiqarilish tartibi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning turlari.

O‘zbekiston Respublikasida boshqa davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va aylanish ko‘lamini kengaytirish muammolari.

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari tushunchasi. Mamlakat fond bozorining asosiy ishtirokchilari tuzilmasi, klassifikatsiyasi va funksiyalari.

Emitentlar faoliyati mazmuni va funksiyalari. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida emitentlarning kategoriyalari va ular faoliyatining xususiyatlari.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat.

Investor faoliyati mazmuni va funksiyalari. Investorlarning kategoriyalari va ularning fond bozorida faoliyatining xususiyatlari.

Emitent va investorlarning, O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorini asosiy ishtirokchilari sifatida o‘zaro munosabatlari va mexanizmi.

Strategik tarmoqlar va yirik korxonalarning uzoq muddatga mo‘ljallangan investisiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, yangi investorlarni jalb etish.

Investision institutni qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatida mohiyati.

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yurituvchi investision institutlarning asosiy turlarini klassifikatsiyasi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida moliyaviy vositachilar faoliyatining mazmuni, vazifa va funksiyalari. Investision vositachilar (broker, distrebyuter va boshkalar)ning turkumlanishi.

Investision dillerning turli qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining xususiyatlari, mazmuni va funksiyalari. Investision kompaniya tuzilmasi, tarkibi va faoliyatining tamoyillari.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yurituvchi investision maslahatchilar faoliyatining mohiyati, funksiyalari va xususiyatlari. Investision maslahatchilarning turlari va faoliyat sohasi.

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozori tashkil topishining ob’yektiv va

sub’yektiv asoslari. Qimmatli qog‘ozlar bozorini paydo bo‘lish tarixi va tashkil etilishining bosqichlari. O‘zbekiston fond bozorini tashkil etilish modelining uzviy qonuniyatlarn va o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasida fond bozorini tashkil etishning iqtisodiy va moliyaviy muhiti. Qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllanish jarayonining huquqiy ta’minlanishi.

O‘zbekiston Respublikasi fond bozorining umumiy tuzilmasi va amal qilish mexanizmi.

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishidagi muammolar.

Qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasi tushunchasi. Fond bozori infratuzilmasining maqsadi va faoliyati. O‘zbekiston fond bozori institusional rivojlanishida infratuzilmaning o‘rni va funksiyasi.

Pay fondlari, ularning turlari va xususiyatlari. Indeksli fondlar va ularning o‘ziga xos jihatlari. Xususiylashtirish investisiya fondlari va vaucherlar.

Milliy qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasining elementlarini klassifikatsiyasi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining maxsus infratuzilmasi. Fond bozorining axborot infratuzilmasi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining texnik infratuzilmasi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqaruv infratuzilmasi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari va ularning faoliyat mexanizmi.

Investision fondlar (IF) tarkibi, funksiyalari va faoliyatidagi cheklovlar. O‘zbekiston Respublikasida xususiylashtirish investisiya fondlari (XIF) funksiyalari, mazmuni va faoliyati xususiyatlari. IF va XIFlar o‘rtasida prinsipial farqlar. Boshqaruvga kompaniya tushunchasi, funksiyalari va faoliyati mazmuni.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitar institutlar faoliyatini tashkil etish xususiyatlari va qonuniyatlari.

Fond bozorida qimmatli qog‘ozlar reyestri faoliyatining mazmuni.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va birlamchi bozorda joylashtirish bilan bog‘liq jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.

O‘zbekiston Respublikasida birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etishning prinsiplari va ishlash mexanizmi. O‘zbekiston Respublikasida aksionerlik jamiyatlarini tashkil etish va ro‘yxatga olish tartibi. Emissiya jarayonini ishlab chiqish va ro‘yxatga olish tartibi. Anderaytingning turli shakllari mazmuni va klassifikatsiyasi.

O‘zbekiston birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati tahlili, muammolari, rivojlanish tendensiyasi. Milliy birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini takomillashtirishning yo‘nalishlari.

Birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining korxonalar faoliyatini moliyalashtirishdagi rolini oshirish yo‘llari.

Ikkilamchi bozor tushunchasi va ko‘lami.

O‘zbekiston Respublikasida ikkilamchi bozorni tashkil etishning ob’yektiv va sub’yektiv asoslari. Ikkilamchi bozorni tashkil etish tarixi. Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori sub’yektlarini tavsifi.

O‘zbekiston Respublikasida ikkilamchi bozorni tashkil etishning qonuniyatlari. Ikkilamchi bozorni ishlash mexanizmi. O‘zbekiston Respublikasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati tavsifi va rivojlanish tendensiyasi.

Xorijiy investisiyalarni jalb qilishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining rolini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

O‘zbekistonda birjaviy qimmatli qog‘ozlar bozorining paydo bo‘lish tarixi va shakllanishining bosqichlari. Qimmatli qog‘ozlar milliy bozori rivojlanishida “Toshkent” Respublika fond birjasining o‘rni va roli. “Toshkent” RFB asosiy funksiyasi va mavqyei. “Toshkent” RFB ni tashkil etish va faoliyatining qonuniyatlari. “Toshkent” RFB ta’sischilari tarkibi va boshqaruv tuzilmasi. “Toshkent” RFB ishlash mexanizmi. Birjaga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish shartlari. Qimmatli qog‘ozlar ekspertizasini amalga oshirish tartibi. Listing va delisting tushunchasi. Qimmatli qog‘ozlar kotirovkasi tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishida “Toshkent” RFB ning o‘rni.

Birjadan tashqari bozorning qimmatli qog‘ozlar savdosini markazlashmagan shaklda tashkil etish. Birjadan tashqari ikkilamchi savdoning chet el tajribasi va qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etishga ta’siri.

O‘zbekiston Respublikasida birjadan tashqari savdoni tashkil etish xususiyatlari. O‘zbekiston fond bozorida birjadan tashkari savdo mexanizmi. Mamlakat birjadan tashqari fond bozori tizimida fond magazinlari roli va o‘rni. Fond magazinlarining ishlash mexanizmi. Qimmatli qog‘ozlarning spekulyativ amaliyotini rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslikning zarurligi va choralari.

Fond bozorida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar tushunchasi, mohiyati va xususiyatlari. Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiya turlarining klassifikatsiyasi.

Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq emission operatsiyalar ko‘lami va mohiyati. Aksiyaning turli kategoriyalarini chiqarish mexanizmi va tartibi. Emissiya loyihasining ko‘lami va tuzilmasi. Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi natijasini ro‘yxatga olish.

Obligatsiyalarni chiqarish ko‘lami, tartibi va texnologiyasi. Obligatsiyaning turli xil kategoriyalarini chiqarish xususiyatlari. Obligatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, ularni chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq risklarni baholash.

Veksellarni chiqarish ko‘lami, funksiyasi va tartibi. Veksellarning turli xildagi muomalasi, to‘lash mexanizmi va xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasida depozit va jamg‘arma sertifikatlarini chiqarish, to‘lash tartibi, ko‘lami va funksiyalari.

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar: opsion, fyuchers, varrant va boshqa fond instrumentlarini chiqarish va muomalada bo‘lish xususiyatlari.

Qimmatli qog‘ozlar bilan turli xildagi bitimlar tavsifi va nisbiy tahlili: olish va sotish, huquqlarini o‘tkazish, voris etish, xadya etish, hisobi, hisobga olish va boshqalar.

Qimmatli qog‘ozlar bilan turli xil bitimlar klassifikatsiyasi. Fond instrumentlari bilan tasdiqlangan va tasdiqlanmagan bitimlar. Qimmatli qog‘ozlar bilan to‘g‘ri va vositachilik bitimlari. Qimmatli qog‘ozlar bilan ulgurji va chakana bitimlar. Qimmatli qog‘ozlar bilan birja va birjadan tashqari bitimlar.

Qimmatli qog‘ozlar bilan kassa operatsiyalarini joriy etish mexanizmi, ko‘lami va mazmuni. Muddatli bitimlarni joriy etish ko‘lami, mazmuni va mexanizmi.

Kliringni, qimmatli qog‘ozlar bilan hisob operatsiyalar majmui sifatida tushunish. Qimmatli qog‘ozlar bozorida kliring va hisobning asosiy funksiyalari.

Kliring va hisob turlarini qimmatli qog‘oz turi, bitimning markazlashganlik darajasi, xizmat ko‘rsatish ko‘lami va boshqalardan kelib chiqqan holda klassifikatsiyalash.

Qimmatli qog‘ozlar bilan bitimlar bo‘yicha kliring va hisoblarni uzviy qonuniyatlarda tashkil etish. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida kliring - hisob faoliyatining mazmuni va xususiyatlari.

Qimmatli qog‘ozlar bilan bitimlarda risklarning tabiati va klassifikatsiyasi. Qimmatli qog‘ozlar bilan bitimlarni tadbiq etish bilan bog‘liq risklarni xedjirlash.

Bozor kon’yunkturasi va emitentning moliyaviy - iqtisodiy holatidan kelib chiqib, fond instrumentlari investision jozibadorligini baholash mohiyati va ko‘lami.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida risklar klassifikatsiyasi. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, ularning muomalasi va to‘lash bilan bog‘liq risklarni xedjirlash.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida qimmatli qog‘ozlar portfeli tushunchasi va uni shakllantirish qonuniyatlari, qimmatli qog‘ozlar portfelining klassifikatsiyasi. Portfelli investisiyalarni boshqarish texnologiyasi.

Qimmatli qog‘ozlarning investision jozibadorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning operasion faoliyati tushunchasi va ko‘lami. Banklarning fond instrumentlari bilan operatsiyalarini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik va me’yoriy hujjatlari.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida bank operatsiyalari klassifikatsiyasi. Banklarning fond

instrumentlari bilan xususiy va mijozli operatsiyalari. Tijorat banklarining emission operatsiyalari ko‘lami, mazmuni va mexanizmi. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan investision operatsiyalari. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan diler va brokerlik operatsiyalarining priisipial farqi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan komission operatsiyalar ko‘lami, mazmuni va tadbiq etish mexanizmi. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan anderrayting, transfertagent, konsalting, trast, garov, kafolat, depozitar, inkasso, hisob - kliring operatsiyalarining prinsipial farqi.

Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorida Markaziy bank funksiyasi va operatsiyalari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozordagi operatsiyalarini tatbiq etish mexanizmi va ularni mamlakatda pul-kredit siyosatini olib borish samaradorligiga ta’siri.

Banklarning resurs bazasini fond bozori orqali mustahkamlash, investision jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirish.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solishda davlatning o‘rni. Davlatning mafkuraviy va qonunchilik funksiyalari. Qimmatli qog‘ozlar bozorining moliyaviy barqarorligi va xavfsizligini nazorati. Fond bozori «oydinligi»ni ta’minlash. Invyestorlarni yo‘qotishlardan himoya qilish tizimini shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish qonuniyatlari. O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi davlat organlari tuzilmasi. Qimmatli qog‘ozlar milliy bozorini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining o‘rni. Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat qilish markazi: uning vazifasi, tuzilmasi va ishlash mexanizmi. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solishda Moliya vazirligining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorida Markaziy bankning mavqyei va funksiyalari.

Fond bozorining o‘zini-o‘zi boshqarishining mohiyati va vazifalari. Fond bozori professional ishtirokchilarining o‘zini boshqarish tashkilotlari tuzilmasi, funksiyalari va mexanizmi. O‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlarining ishlash qonuniyatlari. O‘zbekiston Respublikasida o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlarini shakllantirish yo‘lidagi muammolar.

O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi mavjud muammolar.

IV-BO‘LIM. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

Valyuta munosabatlari va valyuta tizimining asosiy xususiyatlari. Valyuta tizimi tushunchasi va ko‘rinishlari. Valyuta tizimining elementlari. Jahon valyuta tizimining evolyusiyasi. Oltinning funksiyasi va rolini o‘zgarishi.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibini diversifikatsiya qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

Valyuta bozorlari: tushunchasi, funksiyalari va ishtirokchilari. Valyuta bozorida banklarning roli. Valyuta bozorlarining turlari. Valyuta bozorlarining qatnashchilari. Bozorlarning vaqt bo‘yicha chegaralari. Valyutalashtirishning boshlanishi va tugash vaqti. Operatsiyalarning tezligi. Pul bozorlari. Yevrovalyutalar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.

Valyuta kursiga ta’sir etuvchi va aniqlovchi omillar. Milliy valyutani konvertatsiyalash usullari. Valyuta munosabatlarini boshqarish. Valyuta siyosati: maqsadi va shakllari. Chet el valyutasi kotirovkasi. Kotirovka uslublari: to‘g‘ri va teskari.

Inflyasiyaning chuqurlashuvi, muomalada ta’minlanmagan pullarning ko‘payiishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlari.

Xalkaro valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning nazariy asoslari. Valyuta operatsiyalarining klassifikatsiyasi. Naqd bitimlar. Chet el valyutasi ishtirokidagi muddatli bitimlar. Forvard operatsiyalarining umumiy tavsifi. Forvard operatsiyalari uchun belgilangan vaqt. Forvard kelishuvlaridan foydalanish. Forvard kurslarini hisoblash yo‘llari. Spotgacha bo‘lgan valyutalashtirish kuni kelishuvlari uchun autrayt kurslari. Forvard kross-kurslari. Valyuta svoplari. Svop kotirovkalari. Svop kelishuvlaridan foydalanish.

Konversion operatsiyalarining tavsifnomasi. Spot kurinishidagi operatsiyalar. Valyuta kursi va kotirovkalari. Ochik valyuta pozisiyalarining ko‘rinishi. Marjalar va arbitrajning konversion operatsiyalari. Kross- kurslarning mexanizmi.

Fyuchers operatsiyalarining umumiy tavsifi. Valyuta fyucherslarining o‘ziga xos xususiyatlari. Valyuta fyucherslari bilan operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmi. Valyuta fyuchersini O‘zbekistonda qo‘llash muammolari.

Valyuta bozorlarida spekulyativ amaliyotlarni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati. Valyuta siyosati va uni amalga oshirishda qo‘llaniladigan instrumentlar. Valyuta kursini barqarorlashtirish siyosati. Devalvatsiya va revalvatsiyalarning tashqi savdoga to‘g‘ri va teskari ta’siri. Rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta siyosatining umumiy xususiyatlari. XVF valyuta siyosatiga nisbatan talablari.

Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirishda valyuta siyosatining o‘rni.

Valyuta inqirozi tushunchasi. Valyuta inqirozi - iqtisodiy inqiroz shakli sifatida. Brettonvuds valyuta tizimi inqirozi: mohiyati, sabablari, namoyon bo‘lish shakllari, rivojlanish bosqichlari. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatida valyuta integratsiyasi muammolari. Valyuta cheklovlari: sabablari, mohiyati, shakllari. Valyuta cheklovlarining asosiy xususiyatlari. Valyuta cheklovlari taraqqiyoti va uning oqibatlari. Xalqaro Valyuta Fondi orqali davlatlararo valyuta cheklovlarining boshqarilishi.

Moliya bozorlarida katta spekulyativ operatsiyalarning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, muomalada real qiymatga ega bo‘lmagan pullarning paydo bo‘lishini oldini olish.

Chet el valyutasi ishtirokidagi muddatli bitimlarning maqsadi. Valyuta kursining ko‘tarilishi va pasayishiga ta’sir etuvchi omillar. Muddatli valyuta bitimlaridan foydalanish - valyuta inqirozlaridan himoya qilish usuli sifatida. Valyutaviy fyuchers operatsiyalari va ularning forvard operatsiyalaridan farqi. Opsion kelishuvlar. Valyuta arbitraji. Valyuta operatsiyalari nazorati va ularni boshqarish.

To‘lov balansi tushunchasi, asosi va uning tarkibi. To‘lov balansini davlatlararo boshqarish muammolari. To‘lov balansini boshqarish modellari va konsepsiyalarining tahlili. Xalqaro hisob-kitoblar tushunchasi va shartlari. Xalqaro hisob-kitoblar formalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

Mamlakat eksportining diversifikatsiyalashuv darajasini oshirish. Jaxon bozorida xom-

ashyoni eksport qilish amaliyotidan raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksport qilish amaliyotiga o‘tish.

Xalkaro kredit iqtisodiy kategoriya sifatida. Tashqi savdoda kreditning ahamiyati. Jahon bozorlaridagi raqobat va unda xalqaro kreditning roli. Xalqaro kreditning shartlari va shakllari. Xalqaro kreditning davlat tomonidan boshqarilishi. Moliya bozorlarining globallashuvi, bu jarayonning salbiy va ijobiy jihatlari.

Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari - Umumjahon banki guruxi, Osiyo tarakkiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kreditlaridan foydalanishni faollashtirish.

Xalqaro moliya institutlarining umumiy tavsifi. Xalqaro Valyuta Fondi. Jahon tiklanish va taraqqiyot banki. Jahon bankining kredit siyosati, uning aktiv operatsiyalarining tavsifi. Yevropa xamjamiyatining xalqaro moliya institutlari.

Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan yirik investision loyihalarni moliyalashtirish, ular bilan hamkorlikda yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilish.

V - BO‘LIM. SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

Soliq tushunchasi. Soliqlar va soliqqa tortishning shart-sharoiti. Soliqqa tortishning umumiy va xususiy prinsiplari. Erkinlik, soliqqa tortiladigan ob’yekt, soliq qonunchiligi.

Soliqlarning belgilari. Majburiy to‘lovlar. Soliqlar, yig‘imlar va soliq xarakteriga ega bo‘lmagan to‘lovlar. Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi.

Soliqlarning zarurligi. Davlatning o‘z funksiyalarini bajarishi uchun moliya resurslari bilan ta’minlashning zarurligi. Ijtimoiy ehtiyojlar va «ijtimoiy tovarlar». Yalpi ichki mahsulotni taqsimlashda soliqlarning roli.

Soliqlarning funksiyalari. Soliqlarning fiskal va nazorat funksiyalari. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi, iqtisodiyotni tartibga solish, qayta taqsimlash funksiyalari xususidagi iqtisodiy qarashlar.

Soliqqa tortish tamoyillari. Keng qamrovlilik, adolatlik, tenglik tamoyillari. Gorizontal va vertikal adolat. Samaradorlik tamoyili.

Soliqlarni turkumlash. Soliqlarning ayrim turlari to‘g‘risidagi nazariyalar va uning yo‘nalishlari. Yagona soliq nazariyasi. Egri va to‘g‘ri soliqlarning o‘zaro nisbati nazariyasi. Optimal soliq stavkasi bo‘yicha g‘oyalar. Soliqlarning daromadlarni taqsimlashga ta’siri. Lorens egri chizig‘i.

Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash chora- tadbirlari.

Soliq nazariyasi iqtisodiy nazariya fanining tarkibiy qismi ekanligi. Soliq munosabatlari va ularning sub’yektlari. Soliq yuki va farovonlikni adolatli taqsimlash, soliq undirish xususidagi munozaralarning mukarrarligi. Soliqlarning iqtisodiyotdagi roli to‘g‘risida munozaralar.

Soliq munosabatlariga xos bo‘lgan iqtisodiy qonunlar va ularni ilmiy bilish usullari. Induksiya va deduksiya, abstraksiya, tarixiylik va mantiqiylik, makro va mikroiqtisodiy tahlil, matematik, grafik va boshqalar. Soliq nazariyasi va davlatning soliq siyosati.

Soliqlar to‘g‘risida nazariy qarashlarning yo‘nalishlari. O‘rta Osiyoda soliqlar to‘g‘risidagi qarashlar. Amir Temurning soliqqa tortish to‘g‘risidagi fikrlari. Soliq to‘g‘risida klassik nazariya. A.Smit soliq tomoiyillari to‘g‘risida. Ish xaqi, foyda, renta va iste’mol mollariga soliq. Artur Laffer egri chizig‘i.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi roli to‘g‘risida Keynscha nazariya. Neoklassik nazariyalar: monitaristik va taklif iqtisodiyoti nazariyalari.

Soliq nazariyasi va davlatning soliq siyosati. Soliq siyosatining huquqiy asoslari tushunchasi va tarixi. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli va hozirgi zamon soliq siyosati. Soliq mexanizmi va uning tarkibi. Soliq siyosatining mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga moslashuvi.

Soliq elementlari. Soliq sub’yekti, ob’yekti, manbasi, stavkalari, imtiyozlari, soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromadlar, soliq yuki, soliq deklaratsiyasi.

Soliq stavkalarining turlari. Mutanosib, progressiv va regressiv hamda qat’iy stavkalar. Ularning iqtisodiy-ijtimoy ahamiyati. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda regressiv soliq stavkalarining roli.

Soliq imtiyozlari. Soliq imtiyozlarining turlari. Umumiy soliq imtiyozlari. Soliq imtiyozlarini tadqiq etishning nazariy muammolari va amaliy masalalari. Soliqlardan to‘liq ozod etish. Vaqtincha soliqlardan ozod etish. Soliqka tortiladigan bazaning kamaytirilishi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining prinsiplari. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipining o‘ziga xos jihatlari. Soliqlarni xisoblash va undirish usullari. Soliq deklaratsiyasi va uning turlari.

Uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlariga berilgan soliq imtiyozlari va ulardan maqsadli foydalanish yo‘nalishlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i. Foyda solig‘ini to‘lovchilar. Soliq ob’yekti. Jami soliqka tortiladigan daromadlar va ularning tarkibi. Yuridik shaxslar moliyaviy natijalarining shakllanishi. Mahsulot sotishdan olingan yalpi tushum. Umumxo‘jalik faoliyatidan

olingan foyda (yoki zarar). Soliq to‘langunga qadar foyda (yoki zarar). Foyda solig‘i bazasini aniqlashda chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi. Soliqka tortiladigan foydani aniqlash tartibi.

Jami soliqqa tortiladigan foydadan chegirmalar berish tartibi. Bank va sug‘urta tashkilotlari bo‘yicha chegirmalar. Foyda solig‘idan ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari.

Foyda solig‘i stavkalari. Dividend va foizlar bo‘yicha foyda solig‘i stavkalari. Norezident va chet el yuridik shaxslarining foydani soliqqa tortish. Soliq hisobotlarini tuzish va topshirish tartibi. Foyda solig‘ini to‘lash muddatlari. Tugatilayotgan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning mas’uliyatlari.

Mamlakatimizdagi mahsulot eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, eksport saloxiyatini mustahkamlashda ekport hajmiga muvofiq foyda solig‘i stavkalarini pasaytirilishi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining mohiyati va mazmuni. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash usullari. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan oborotni aniqlash.

Soliqqa tortiladigan oborotni korrektirovka qilish. Soliq stavkalari va ularni qo‘llash tartibi. Soliq bo‘yicha imtiyozlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha berilgan ba’zi imtiyozlarni takomillashtirish masalalari. Davlat byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlash tartibi. Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlash tartibi. Hisob varaq - fakturalar. Hisob varaq - fakturalar asosida qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobini yuritish va soliqqa tortish masalalari.

O‘zbekiston hududiga import qilingan tovar (ish va xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari. Soliqni to‘lash muddatlari. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining boshqa soliq turlari bilan bog‘liqligi.

Ekportyor korxonalarni rag‘batlantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘ining nol darajali stavkasining qo‘llanishi va xarid qilingan xom ashyo uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini byudjetdan qaytarilish muddatlarining qisqartirilishi.

Ishlab chiqarilgan va import qilingan tovarlarga aksiz solig‘i hisoblash va to‘lash tartibi. Aksiz solig‘ining mohiyati. Soliq tizimida aksiz solig‘ining tutgan o‘rni. Aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati. Soliq solish ob’yekti. Soliq stavkasi. Aksiz solig‘i to‘lash tartibi. Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari. Import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati.

Soliq solish ob’yekti. Aksiz solig‘i bo‘yicha imtiyozlar. Alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqa tovarlarga aksiz markalari qo‘llashdagi muammolar.

Aksiz solig‘ini hisoblash tartibi, to‘lov va hisobot muddatlari. Soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari. Aksiz solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq. Mol-mulk solig‘i haqida tushuncha va uning kelib chiqish tarixi. Iqtisodiyot uchun mol-mulk solig‘ining ob’yektiv zarurati. Byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig‘ining roli va hissasi.

Yuridik shaxslarda mol-mulk solig‘ining ob’yektlari. Mol-mulk solig‘ini hisoblash usullari va muammolari. Kredit tashkilotlarida mol-mulk solig‘ini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari va imtiyozlar. Mol-mulk solig‘ini to‘lash muddatlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i. Yer solig‘ining moxiyati va zarurligi. Uning soliqlar tizimidagi iqtisodiy roli va o‘rni. Yerga bo‘lgan huquq. Yer boniteti va kadastri. Yer solig‘ini o‘rnatish tamoyili va uni to‘lovchilar.

Yuridik shaxslarda yer solig‘i ob’yektini aniqlashdagi muammolar. Yer solig‘i stavkasi va imtiyozlari. Yer solig‘ini hisoblash tartibi. Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i. Sug‘oriladigan yerlarni baholash. Yagona yer solig‘ini hisoblash tartibi. Soliq idoralari nazorati.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirishda yer solig‘ining rag‘batlantiruvchi rolini oshirish yo‘nalishlari.

Yuridik shaxslar to‘laydigan boshqa to‘lovlar va yig‘imlar. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga yagona ijtimoiy to‘lovning maqsadi va vazifalari. Yagona ijtimoiy to‘lovning ob’yekti, stavkasi va to‘lash, hisoblash, undirish mexanizmlari. Mahsulot hajmiga nisbatan pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar. Majburiy ajratma ob’yekti, stavkasi va hisobot topshirish tartibi. Yuridik shaxslar tomonidan tovarlar import qilinayotganda to‘lanadigan bojxona to‘lovlar stavkalari va undirish mexanizmi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga ajratmalarning maqsadi va mazmuni. Ajratma ob’yektlari va stavkasi. Ajratmani hisoblash va undirish tartiblari.

Byudjetdan tashqari umumta’lim maktablari, kasb-xunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar uchun majburiy to‘lovning maqsadi va mazmuni. Majburiy to‘lov undiriladigan ob’yekt. Majburiy to‘lov stavkasi va majburiy to‘lovni undirish tartibi.

Tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun lisenzion yig‘imlar. Yig‘im stavkalari. Yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun yig‘imlar.

Tadbirkorlarning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq sarf- xarajatlarini kamaytirishda hujjatlarni rasmiylashtirish uchun yig‘imlar va ular miqdorining pasaytirilishi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning mohiyati va ahamiyati. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlarning mohiyati, ularning soliqlar tizimida tutgan o‘rni va roli. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy (fiskal) va ijtimoiy ahamiyati.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar - rezidentlar va norezidentlar. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan soliq summalarining hisobi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning o‘sish sur’atlari va ularni belgilovchi omillar. Soliq yuki tushunchasi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlar, ularni joriy etish va tartibga solishning umumiy qoidalari hamda ularni takomillashtirish muammolari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlari va mol-mulklarini soliqqa tortish prinsiplari hamda ularni amalga oshirish.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i. Mehnat haqi shaklida olinadigan daromadlar tarkibi. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash tartibi. Soliq stavkalari va shkalalari. Daromad solig‘i summasini hisoblash tartibi. Asosiy ish joyidan tashqarida olinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortish. Jismoniy shaxslarga daromadlar to‘langan manbadan soliqlarni ushlab qolish va uni davlat byudjetiga o‘tkazish tartibi. Jismoniy shaxslarning mehnat haqi shaklida olinadigan daromadlari bo‘yicha soliq imtiyozlari. Soliqlardan ozod qilingan jismoniy shaxslarning daromadlari. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortilmaydigan daromadlari. Xorijiy jismoniy shaxslarni va norezidentlarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarning tarkibi. Mulkiy daromadlar: foizlar, dividentlar, mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlar, patent egasi bo‘lgan jismoniy shaxs uni sotishdan olgan daromadi, qimmatli qog‘oz realizatsiya qilishdan tushgan daromad, soliq va majburiy to‘lovlar to‘lagandan keyin xususiy korxona egasi ixtiyorida qoladigan foyda, royalti. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadini soliqka tortish. Soliq stavkalari va ularni takomillashtirish masalalari. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarda qat’iy soliq stavkalari, soliq stavkalarini soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga moslashtirish. Soliqni to‘lash tartibi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan undiriladigan soliq stavkasi va imtiyozlari. Mol-mulk solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi va muammolari. Jismoniy shaxslar to‘laydigan mol-mulk solig‘ini undirish, hisoblash ishlarini tashkil etish va yuritish muammolarini hal etish.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i ob’yektini aniqlash masalalari va qayta ko‘rib chiqish tartibi. Soliq to‘lovchilarning mas’uliyatlari va ularning shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi. Soliq undirish ustidan nazorat.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i. Yer solig‘i stavkalari. Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i solinadigan ob’yektlar. Jismoniy shaxslar bo‘yicha yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar. Imtiyoz huquqining tatbiq etilish va bekor qilinish tartibi. Yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlari.

Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan boshqa soliqlar va yig‘imlar. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni jismoniy shaxslardan olinadigan soliqni to‘lash va hisoblash. Uning afzalliklari va kamchiliklari. Ilgari amalda bo‘lgan jismoniy shaxslar to‘laydigan transport solig‘iga nisbatan qulayliklari va uni takomillashtirish. Soliq to‘lovchi sub’yektlar. Soliqqa tortish ob’yekti va soliqni to‘lash manbalari. Jismoniy shaxslar to‘laydigan byudjetdan tashqari majburiy ajratmalar, hisoblash tartibi.

Savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im va uning to‘lovchilari. Chakana savdo shahobchalari. Savdo-sotiq qilish huquqi uchun guvohnoma va uning berilish muddati. Yig‘im stavkasi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar import qilinayotganda to‘lanadigan bojxona to‘lovlar stavkalari va undirish mexanizmi.

Ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi lisenziyalar va ularni berish tartibi. Lisenziya yig‘imlarning to‘lovchilari.

Binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik sub’yektlarining joylashgan o‘rni va ularning faoliyat turiga qarab belgilanishi.

VI - BO‘LIM. INVESTISIYA VA INVESTISIYALAR (LOYIHALAR)NI MOLIYALASHTIRISH

Investisiyalarni mazmuni, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Investisiyalarni tasnifi va shakllari. Investisiya faoliyati sub’yektlari va ob’yektlari. Investorlar va ularni maqsadlari. Yakka tartibdagi investorlar, institusional va professional investorlar. Investorlarning cheklovlari. Investisiyalarni maqsadlari, amaliyotda ularni uyg‘unlashuvi. Investisiya portfeli. Investisiyalarni boshqarish.

Investision mablag‘larni shakllantirish tamoyillari va ularni amal qilish tizimi. Turli xil investision mablag‘larni fundamental xususiyatlarining qiyosiy tahlili. Real va moliyaviy aktivlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi. Moliyaviy aktivlar (aniq daromadli qimmatli qog‘ozlar, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar - derivativlar).

Investision huquq tushunchasi va investisiya qonunchiligi. Investision faoliyat huquqiy asoslarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Investision faoliyatni rivojlanishida davlatning roli. Investision faoliyatni tartibga solish ob’yektlari va qonunchilik. Investision faoliyatni tartibga solish sub’yektlari. Investision faoliyat sohasidagi qonunchilikni shakllantirishning asosiy tamoyillari. Investision faoliyatni tartibga solish sohasidagi munosabatlar va ularning xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasining investision faoliyat sohasidagi qonunchiligining tarkibiy tuzilishi. O‘zR Konstitutsiyasi, O‘zR Fuqarolik kodeksi va investision faoliyat sohasidagi boshqa qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

Investisiya muhiti ma’nosi. Investisiya muhitini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Investisiya muhitini baholash parametrlari. Investisiya muhiti Jahon banki nigohida. Investisiya muhitini aniqlovchi omillar. Investisiya muhiti ko‘rsatkichlari. Jahon banki tomonidan investisiya muhitini baholash. MDX davlatlari investisiya muhitini Jahon banki tomonidan tahlili.

Respublikamizda investision muhitni yanada yaxshilash, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish.

Investisiya siyosatining nazariy jihatlari. Chet el investisiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Investisiya va tashqi savdo siyosatini o‘zaro bog‘liqligi (import o‘rnini bosuvchi va eksportni rag‘batlantiruvchi). Asosiy vositalar va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib investisiya siyosatini tavsiflanishi. Kapital oqimlarini kirib kelishi va chiqib ketishi ustidan davlat nazoratini samaradorligi. Asosiy investision rejimlar. Chet el investorlariga davlat kafolatlari. Davlatning tartibga solish vositalari. Chet el kapitali kirib kelishini rag‘batlantiruvchi yo‘nalishlar. Xorijiy va milliy investorlarga beriladigan soliqli, moliyaviy va boshqa imtiyozlar.

Xo‘jalik sub’yektlarining aktiv va passiv investisiya siyosatlari. Investisiyalarni o‘zaro himoyalash va rag‘batlantirish bo‘yicha kelishuvlar va shartnomalar. Xududiy investisiya shartnomalari. Chet el investisiyalarini hududiy darajada tartibga solish. Erkin savdo zonalarini barpo etish. O‘zaro kapitallarni to‘liq va qisman erkinlashtirish. XVF va Jahon banki investisiyalarni tartibga solish tizimida Jahon savdo tashkiloti doirasidagi xalqaro investisiya shartnomasi.

Yirik investisiya loyixalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikasya ob’yektlarini, qishloq xo‘jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish hamda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko‘tarish, faol investisiya siyosati va uni amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

Xalqaro investisiyalarning ob’yekti, vazifalari va funksiyalari. Xalqaro investisiyalarning turlari va asosiy vositalari. Valras modeli. Xalqaro kapital xarakati shakllari. Xalqaro investisiya oqimlari va bozorlari. Xalqaro investisiya bozori va uning segmentlari. Xalqaro investisiyalash qoidalari. Moliya bozori kon’yunkturasi tushunchasi, tarkibi, uni tadqiq etish tamoyillari. Xalqaro investisiya bozorining turli institutlari tasnifi, tamoyillari, vazifalari va faoliyat yuritish mexanizmlari. Xalqaro korporatsiya shakllari. Xalqaro moliya institutlari.

Taraqqiy etgan mamlakatlardan investisiyalar jalb qilish ko‘lamini kyengaytirish.

Moliya bozorida mahalliy va xorijiy investorlar huquq va manfaatlarini ximoya qilish,

rag‘batlantirish borasidagi davlat siyosati va qonunchilik bazasi (jumladan, qimmatli qog‘ozlar bozorida). Bevosita xalqaro investisiyalarni turlari va ularning amal qilish tamoyillari (Lisenzion kelishuvlar, franchayzing, lizing, tolling). Bevosita investisiyalarning iqtisodiy samaradorligini va hajmini baholash. Xususiylashtirish ob’yektlariga investisiyalarni jalb qilish va qo‘shma korxonalar tashkil etish. O‘zbekistonning bazaviy sanoat tarmoqlari korxonalarini induvidial xususiylashtirish vositasida strategik xorijiy investorlarni jalb qilish muammolari. Xorijiy investorlarga sotiladigan ob’yektlarni tanlash tamoyillari. Bevosita investisiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. O‘zbekiston korxonalari boshqaruv tizimida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish.

Xalqaro moliya institutlari, investisiyalarini iqtisodiyotning real sektoriga jalb etish va ular asosida yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish.

Investisiyalarni moliyalashtirish tartiblari va usullari. Kapital investisiyalarni moliyalashtirish tamoyillari: maqsadga muvofiq moliyalashtirish; muddatli moliyalashtirish; investision qarorlar asosida moliyalashtirish; tanlangan usullar asosida moliyalashtirish; investisiyalarni vaqtli qiymati asosida moliyalashtirish; loyiha pul oqimlaridan kelib chiqib moliyalash. Moliyalashtirishni davlat va bozor mexanizmlari. Investisiyalarni moliyalashtirishning aralash usuli.

Moliyalashtirishni tashkiliy shakllari. Qaytarish va qaytarilmaslik shartlari asosidagi davlat kreditlari. Davlatning tashqaridan jalb etiladigan mablag‘lari, qarzlari va investision loyihalarni moliyalashtirilishi.

Nodavlat nafaqa fondlari. Sug‘urta tashkilotlari investor sifatida. Investisiya fondlari va kompaniyalari.

Qaytarish sharti bilan kreditlar evaziga moliyalashtirish. Investision loyihalarning moliyalashtirishdagi kreditlarning tasnifi. Bank kreditining asosiy shakllari. O‘zbekistonda kredit tizimini tashkil topishi va rivojlanishi. Banklarning investisiya faoliyati. Kapital qo‘yilmalarni uzoq muddatli kreditlash.

Moliyalashtirishni lizing usuli, xalqaro lizing. Lizingni qo‘llash afzalliklari. Lizing investision loyihalarni moliyalashtirish manbai sifatida.

Venchur kapitali. Venchur kapitalining omilli tavsiflari. Venchur kapitalining yuqori riskli muhitda ishlatilishi. Venchur kapitalining manbalari.

Tijorat banklarining uzoq muddatli investision kreditlari hajmini oshirish, korxonalar tomonidan investisiya loyixalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar. “Kapital qiymati” tushunchasi. Kapitalning muqobil qiymati. Kapitalni tashkil etuvchi elementlar qiymati. Investision resurslarni o‘rtacha tortilgan qiymati. Kapital qiymatini o‘rtacha tortilgan narxi. Kapitalning marjinal qiymatini firma investisiya faoliyatiga ta’siri.

Investision loyixalar samaradorligini baholash tamoyillari. Loyiha samaradorligini hisoblashni dastlabki ma’lumotlari. Investision qarorlar samaradorligining mezonlari. Investision loyihalar samaradorligining baholash ko‘rsatkichlari. Loyiha samaradorligini baholash. Investision loyihalar samaradorligini baholashda risklar va noaniqliklarni ta’siri. Investision loyixalar samaradorligini baholashning dasturiy ta’minoti. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm. Vaqt omili hisobi. Investision loyihalar samaradorligini baholashning xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash shartlari.

Investision loyihalar samaradorligining statistik va dinamik turlari. Loyihaviy tahlilning vositalari. Turli ko‘rsatkichlarni qo‘llash sohalari va shartlari. Alohida mezonlarning afzalliklari, kamchiliklari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari. Daromad me’yori va uning tarkibi. Investision loyihalarni ijtimoiy samaradorligini baholash.

Turli xil loyihalar tavsifi. Investision loyiha tushunchasi, maqsadi va tarkibi. Loyihalarni tasniflash: yirik va kichik, ichki va tashqi, texnik va notexnik, iqtisodiy va ijtimoiy. Loyiha ishtirokchilari. “Loyixani boshqarish” tushunchasi, loyihalarni boshqarishning investisiyalarni boshqarish va uning funksional boshqaruvi bilan o‘zaro bog‘liqligi. Loyihalarni boshqarishning asosiy tushunchalari tasnifi.

Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan investisiya loyihalar, strategik tarmoqlar va yirik korxonalarning uzoq muddatli texnika siyosati nuqtai nazaridan ishlab chiqilayotgan yangi loyihalarni amalga oshirishning muddatlari va shartlarini muvofiqlashtirish yo‘nalishlari.

Investision davr, mazmuni va loyihani ishlab chiqish bosqichlari. Loyihani tayyorlash davri bosqichlari. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish. Loyihaning investision g‘oyasini shakllantirish. Investision loyiha variantlarini ishlab chiqish. Loyihaning hayotiylik davri: investisiyadan oldingi, investisiya davri va ekspluatatsiya fazasi. Loyihaning dastlabki rejasi.

Loyihaviy moliyalashning mohiyati, shakllari va usullari. Loyihaviy moliyalashning real investisiyalarni an’anaviy kreditlashdan farqi. Xorijda loyihaviy moliyalash. Loyihaviy moliyalashning asosiy shakllari va sxemalari. Loyiha davri bank nuqtai nazarida. Parallel va ketma-ketlik moliyalash asosida loyihaviy moliyalash.

Moliya bozori kon’yunkturasi tushunchasi, tarkibi, uni tadqiq etish tamoyillari. Investisiya likvidliligini baxolash. Qimmatli qog‘ozlar bozorida marketing tadqiqotlarini tashkil etish. Birja bozori kon’yunkturasini texnik tahlili xususiyatlari. Banklararo kreditlar va zahira fondlari. Valyuta opsionlari va fyucherslari, forvard bitimlari. Banklararo svop operatsiyasi. Loyiha riskini tahlil qilishning mohiyati. Loyihadagi risk turlari. Loyiha risklarini tadqiq qilish usullari tasnifi. Loyiha risklarini baholash. Loyihalarni moliyalashtirishda risklarni hisobga olish. Investision portfelni shakllantirish mexanizmi. Mablag‘larni qo‘yilma qilish yo‘nalishini tanlash.

VII - BO‘LIM. SUG‘URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Sug‘urtaning asosiy belgilari. Sug‘urtaning o‘ziga xos funksiyalari va sug‘urta fondlari. Bozor iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni. Sug‘urta atamalari (sug‘urta hodisasi, sug‘urta mukofoti va summasi, sug‘urta shartnomasi va polisi, sug‘urta javobgarligi va boshqalar). Sug‘urtaning guruhlanishi. Sug‘urta bozorining sub’yektlari va ob’yektlari.

Sug‘urtaning qonuniy asoslari va uning mazmuni. Sug‘urta qonunchiligi va uning tarkibiga kiruvchi qonunchilik hujjatlari. Umumiy sug‘urta qonunchiligi. Maxsus sug‘urta qonunchiligi. Sug‘urta qonunchiligida “Fuqarolik kodeksi” va undagi 52-bobning tutgan o‘rni va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi” qonuni va mazmuni. Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining me’yoriy-huquqiy hujjatlari. Sug‘urta shartnomasi va uning shartlari.

O‘zbekiston sug‘urta bozorni zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari. Rivojlangan davlatlarda sug‘urta bozorni professional ishtirokchilari. Sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyati. Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori faoliyati. Rivojlangan davlatlarda va O‘zbekistonda sug‘urta bozorini tarkibiy tuzilishini tahlili. O‘zbekistonda sug‘urta bozorini samarali infratuzilmasini yaratish muammolar va rivojlantirish istiqbollari.

Mulk sug‘urtasining asosiy turlari. Mulk sug‘urtasini turkumlanishi. Mulk sug‘urtasini tashkil etish xususiyatlari. Yuridik va jismoniy shaxslar mulklarini sug‘urtalash. Mulk sug‘urtasida tariflarini hisoblash usullari. Mulk sug‘urtasida zararni baholash va sug‘urta koplamasini aniqlash usullari. Mulk sug‘urtasini takomillashtirish masalalari.

Javobgarlik sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati. Javobgarlik sug‘urtasining asosiy turlari. Javobgarlik sug‘urtasining turkumlanishi. Javobgarlik sug‘urtasini tashkil etish xususiyatlari. Javobgarlik sug‘urtasida tariflarini hisoblash usullari. Zararni baholash va sug‘urta qoplamasini aniqlash usullari.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta marketingining mohiyati va ahamiyati. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘uta mahsulotlari va uni sotish kanallari. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida raqobat. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida risk menedjmenti. Umumiy sug‘urta tarmog‘ini tartibga solishda va boshqarishda nazorat organlarining roli va o‘rni. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida anderayting. Umumiy sug‘urta faoliyatida informasion texnologiyalar menejmenti.

Xayot sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati. Xayot sug‘urtasining turkumlanishi. Xayot sug‘urtasining asosiy turlari. Xayot sug‘urtasini tashkil etish xususiyatlari. Xayot sug‘urtasida tariflarini hisoblash usullari. Xayot sug‘urtsida zararni baholash va sug‘urta qoplamasini aniqlash usullari. Xayot sug‘urtasini takomillashtirish masalalari.

Xayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta marketingining mohiyati va ahamiyati. Xayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘uta mahsulotlari va uni sotish kanallari. Xayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida raqobat. Xayot sug‘urta tarmog‘ida risk menedjmenti. Xayot sug‘urta tarmog‘iini tartibga solishda va boshqarishda nazorat organlarining roli va o‘rni. Xayot sug‘urta tarmog‘ida anderrayting. Xayot sug‘urta faoliyatida informasion texnologiyalar menejmenti.

Zamonaviy sug‘urta texnologiyalarining mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi. Umumiy va hayot sug‘urta tarmog‘ida zamonaviy sug‘urta texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy sug‘urta texnologiyalarining sug‘urta tashkilotlari biznes jarayonlaridagi o‘rni va roli. Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatni olib borishning zamonaviy ko‘rinishlari. Sug‘urta menejmenti va sug‘urta marketingida zamonaviy sug‘urta texnologiyalari. Xorijiy davlatlarda sug‘urtalashning zamonaviy texnologiyalari.

Investision loyihalarning samaradorligini ta’minlash sug‘urta texnologiyalarining o‘rni. Qayta sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalarining turlari. Qayta sug‘urta kompaniyalari faoliyatini tashkil etish asoslari. Sug‘urta sohasida firibgarlikka qarshi zamonaviy texnologiyalari. Sug‘urta firibgarligi turlari. Sug‘urtalovchilar va sug‘urtalanuvchilarni sug‘urta firibgarliklaridan himoyalash mexanizmlari.

08.00.07. – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovidagi namunaviy savollar ro‘yxati

1. Moliyaning kelib chiqishi, uni davlat va pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rni.
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tartibga solishda moliyadan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari.
3. Moliyaviy boshqaruv organlari
4. Moliyaviy nazorat o‘tkazishning shakllari va usullari
5. O‘zbekiston Respublikasining moliya tizimi
6. Xo‘jalik sub’yektlari ixtiyorida shakllanadigan fondlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tafovutlari
7. Davlatning moliyaviy siyosati
8. Korporativ boshqaruv
9. O‘zbekiston Respublikasining byudjet tuzilmasi va tizimi
10. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tasnifi
11. Byudjet defisitini moliyalashtirish manbalari tasnifi
12. Davlat qarzlari turlarining tasnifi.
13. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va roli
14. Davlat kreditining zarurligi, uning mohiyati va funksiyalari
15. Byudjet daromadlaring strukturasi
16. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi
17. G‘aznachilik tizimiga o‘tishning ob’yektiv zarurligi
18. Iqtisodiyot va moliya va G‘aznachilik organlari vazifalarining taqsimlanishi
19. Markaziy bankning hukumat kreditlari va ularning pul aylanmasiga ta’siri
20. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning iqtisodiy mohiyati va ularni moliya tizimidagi ahamiyati
21. Pulning mohiyati va namoyon bo‘lish shakllari
22. Pulning miqdoriylik nazariyasi
23. Pul muomalasi tushunchasi
24. «Pul aylanmasi» tushunchasining mazmuni
25. O‘zbekistonda inflyasiya va inflyasion jarayonlar: uning o‘ziga xos xususiyatlari; inflyasiyaga qarshi kurash tadbirlari; inflyasiyani yuzaga keltiruvchi nomonetar va monetar omillar.
26. O‘zbekiston Respublikasida naqd pul muomalasining o‘ziga xos xususiyatlari
27. Globallashuv sharoitida jahon xo‘jaligida real qiymatga ega bo‘lmagan pul xajmining ko‘payishi sabablari va uning oldini olish yo‘llari
28. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi: milliy pul birligi «so‘m»ning barqarorligini mustahkamlash istiqbollari
29. Kreditning mohiyati
30. Ssuda foizining mazmuni va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar
31. Tijorat banklari kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar salmog‘ini yanada oshirish chora-tadbirlari
32. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va funksiyalari
33. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash - Markaziy bankning bosh maqsadi
34. Markaziy bank banklarning banki sifatida.
35. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish mexanizmi.
36. Bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish yo‘llari
37. To‘lovsizlik muammosining asosiy sabablari, oqibatlari va ularni hal qilish yo‘llari.
38. Tijorat banklarining kredit portfeli va uni baholash.
39. Qishloq xo‘jalik sub’yektlarini kreditlash va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
40. Muammoli kreditlar: kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish usullari. Kredit

qaytarilmagan holatlarda zahiralarni tashkil qilish tartibi.
41. Bank faoliyatini tashkil etish va banklarni boshqarish tuzilmasi
42. Qimmatli qog‘ozlar zamonaviy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy kategoriyasi sifatida.
43. O‘zbekiston Respublikasida bank sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish xususiyatlari
44. Banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash orqali ular tomonidan berilayotgan uzoq muddatli kreditlarning hajmini oshirish.
45. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning qo‘llanilishi va funksiyalari
46. Qarz munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar va ularning turlari
47. Davlat qimmatli qog‘ozlarining funksiyalari va qo‘llanilishi.
48. Davlat qimmatli qog‘ozlarining turlari
49. Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari tushunchasi
50. Mamlakat fond bozorining asosiy ishtirokchilari tuzilmasi, klassifikatsiyasi va funksiyalari
51. Investision institutni qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatida mohiyati
52. O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozori tashkil topishining ob’yektiv va sub’yektiv asoslari
53. O‘zbekiston Respublikasi fond bozorining umumiy tuzilmasi va amal qilish mexanizmi
54. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari va ularning faoliyat mexanizmi.
55. O‘zbekiston birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati tahlili, muammolari, rivojlanish tendensiyasi
56. Qimmatli qog‘ozlar milliy bozori rivojlanishida “Toshkent” Respublika fond birjasining o‘rni va roli.
57. Fond bozorida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar tushunchasi, mohiyati va xususiyatlari
58. Obligatsiyalarni chiqarish ko‘lami, tartibi va texnologiyasi
59. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar: opsion, fyuchers, varrant va boshqa fond instrumentlarini chiqarish va muomalada bo‘lish xususiyatlari
60. Valyuta bozorlari: tushunchasi, funksiyalari va ishtirokchilari
61. Tashqi savdo aylanmasi tarkibini diversifikatsiya qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar
62. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi va aniqlovchi omillar
63. Valyuta siyosati: maqsadi va shakllari.
64. Inflyasiyaning chuqurlashuvi, muomalada ta’minlanmagan pullarning ko‘payiishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlari
65. Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati
66. Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirishda valyuta siyosatining o‘rni
67. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari - Umumjahon banki guruxi, Osiyo tarakkiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kreditlaridan foydalanishni faollashtirish
68. Jahon bankining kredit siyosati, uning aktiv operatsiyalarining tavsifi
69. Soliqlar va soliqqa tortishning shart-sharoiti
70. Soliqqa tortish tamoyillari
71. Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash chora- tadbirlari
72. Soliq nazariyasi va davlatning soliq siyosati
73. Soliq imtiyozlari va soliq imtiyozlarining turlari
74. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i
75. Qo‘shilgan qiymat solig‘i
76. Ishlab chiqarilgan va import qilingan tovarlarga aksiz solig‘i hisoblash va to‘lash tartibi.

77. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
78. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
79. Investisiyalarni mazmuni, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati
80. Investision huquq tushunchasi va investisiya qonunchiligi
81. Respublikamizda investision muhitni yanada yaxshilash, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish.
82. Investisiya siyosatining nazariy jihatlari
83. Xo‘jalik sub’yektlarining aktiv va passiv investisiya siyosatlari
84. Xalqaro investisiyalarning ob’yekti, vazifalari va funksiyalari
85. Xalqaro moliya institutlari, investisiyalarini iqtisodiyotning real sektoriga jalb etish va ular asosida yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish.
86. Sug‘urta tashkilotlari investor sifatida
87. Investision davr, mazmuni va loyihani ishlab chiqish bosqichlari
88. Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati
89. Bozor iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni
90. O‘zbekiston sug‘urta bozorni zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit» ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutining mustaqil izlanuvchi shakliga o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkaziladigan suhbatda talabgorlarning ilmiy salohiyatini baholash mezonlari

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit» ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkaziladigan suhbat tanlangan ixtisoslik bo‘yicha talabgorlarning nazariy tayyorgarligi, ilmiy-tahliliy fikrlashi, tadqiqot olib borish qobiliyati hamda kasbiy moslik darajasini aniqlash va baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Suhbat ixtisoslik bo‘yicha 4 ta savoldan iborat bilet asosida o‘tkaziladi. Har bir savol bo‘yicha 0 dan 25 ballgacha, jami 100 ball qo‘yiladi. Talabgor bilet savollari bilan tanishib, zarur hollarda o‘zi uchun qisqa yozma qaydlar tayyorlashi mumkin, biroq bu qaydlar baholash obyekti hisoblanmaydi. Baholash faqat talabgorning og‘zaki javoblari va suhbat jarayonidagi fikrlari asosida amalga oshiriladi. Imtihon komissiyasi javoblarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

Talabgorlarning har bir og‘zaki javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Javoblarning to‘liqligi va mazmunan asoslanganligi;
2. Savollarga javoblarning mantiqan izchil va aniqlik bilan bayon etilishi;
3. Ilmiy-uslubiy tilda fikrni to‘g‘ri, ravon va aniq ifoda eta olish;
4. Tanlangan ixtisoslik bo‘yicha nazariy bilimlar chuqurligi va tizimliligi;
5. Tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish;
6. Fan va texnika yutuqlarini hamda dolzarb ilmiy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olish;
7. Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil yuritish va asosli xulosalar bera olish;
8. Komissiya savollariga tezkor, mantiqli va ishonchli javob qaytara olish.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	javoblar yuqoridagi mezonlarga to‘liq javob bergan, chuqur, ilmiy asoslangan va tahliliy darajasi yuqori bo‘lgan hollarda;
71-85 ball	javoblar asosan to‘liq va to‘g‘ri bo‘lib, ayrim kamchilik va noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan hollarda;
56-70 ball	javoblar qisman izchil bo‘lib, ayrim savollar yuzaki ochilgan yoki ilmiy asos va tahlil yetarli bo‘lmagan hollarda;
0-55 ball	javoblar yuzaki bo‘lgan, savollarga mos emas yoki ilmiy saviya talab darajasiga javob bermagan hollarda.

Mazkur suhbat mezonlari mustaqil izlanuvchilik shakliga o‘qishga qabul qilishda qo‘llaniladi. Imtihon komissiyasi zaruratga ko‘ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo‘nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari hamda kutilayotgan ilmiy natijalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. - T.: “O‘zbekiston”, 2016. - 48 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tankidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 103 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: “O‘zbekiston”, 2016. - 56 b.

4. Alexin B.I. Rынok syennix bumag. Vvedeniye v fondovыye operasii.-Samara: Samven, 1992. 5. Birjevoye delo: Uchebnik / Pod. red. V.A. Galanova, A.I. Basova. - M.: Finansы i statistika, 1998.

6. Burxanov A.U., Xudoykulov X.X. Moliya bozori va investisiyalar. Darslik. - T.: «Ma’naviyat», 2021. - 528 bet.

7. Burxanov A.U., Xamdamov O.N. Moliyaviy menejment. Darslik. -Toshkent: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. - 468 bet.

8. Burxanov A.U., Muminov Sh.X., Xudoykulov X.X. Investisiya va innovatsiyalar. Darslik. -Toshkent: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. - 464 bet.

9. Butikov I. L. Qimmatli qog‘ozlar bozori. -Toshkent: Konsaditinform, 2001.

10. Malikov T. Moliya. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -267 b.

11. Malikov T.S., Jalilov Sh.D. Moliyaviy tizim: zamonaviy talqin” . O‘quv- uslubiy qo‘llanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2016. 114 b.

12. Vылkova Ye.S., Romanovskiy M.V. Nalogovoye planirovaniye. -SPb.: Piter, 2004.- 193 s.

13. Gizatullin X.N., Zaripova I.R. Formirovaniye i problemы rasshireniya samostoyatelnosti mestnых byudjetov v usloviyax rынochnых otnosheniy. 2-izd. - Ufa: Institut ekonomiki UrO RAN, 2001 g.

14. Gitman L.Dj., M.D.Djonik. Osnovы investirovaniya.-M.: Delo, 1997.

15. Doljenkova L.D. Vliyaniye ekonomiki SSHA na polojeniye v mirovom xozyaystve // Bankovskoye delo, №6, 2001.—s 2-7.

16. Doronin I.G. Novыye yavleniya i tendensii v ekonomike i na finansovom rынke zapadnых stran//Dengi i kredit. -Tashkent, 2003.-№9,-s.59-61.

17. Jurayev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yullari. -T.: Fan, 2004. - 243 b.

18. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. - T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. - 544 b. 19. Zaynalov J.R. Soliqlar va soliqka tortish. - S: Samarqand kooperativ instituti, 2002. - 366 b.

20. Yo‘ldoshev M., Tursunov Y. Moliya huquqi. - T.: Moliya, 2000. -212 b.

21. Keyns Dj. Obщaya teoriya zanyatosti, prosentov i deneg. Per. s angl. Obщ. Red. A.G. Mileykovskogo i I.M. Osadchey. - M.: «Progress», 1978.

22. Kilyachkov A. A., Chaadayeva L. D. Rынok syennых bumag i birjevoy delo. -M: IKist, 2000

23. Kovzanadze I.K. Dostatochnost kapitala - klyuchevoy element ustoychivosti kommercheskogo banka // Bankovskoye delo, №12, 2001. -s.5-8

24. Makkonnell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: prinsipы, problemы i politika / Per. 16-go angl. izd. -M.: INFRA-M, 2006. - 940 s.

25. Malikov T.S. Soliqlar va soliqka tortishning dolzarb masalalari. - T.: Akademiya, 2002. - 204 b.

26. Malikov T. Moliya: xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasi Toshkent: Moliya-iqtisod, 2009.

27. Malikov T., Xaydarov N. Moliya: umumdavlat moliyasi. - Toshkent: Moliya- iktisod, 2009.

28. Mirkin Ya. M. Syennыye bumagi i fondovыy rынok. -M: Perspektiva, 1995

29. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy mыsli i politiki nalogov. -M.: Fынansы i statistika, 2003. - 256 s.

30. Rubsov B. B. Zarubejnыye fondovыye rынki. - M: Finansы i statistika, 1996.

31. Rынok syennыx bumag i yego finansovыye institutы: Uchebnoye posobiye/ Pod. red. V.S. Tarkanovskogo, - SPb: AO «Komplekt», 1994.

32. Sobirov X,.R. O‘zbekistonning davlat moliyasi tarixi. -T.: "Ta’lim manbai" jamiyati, 2002. - 152 b.

33. Finansы. /Pod red. L.A. Drobozinoy -M.: YUNITI, 2003. - 350 s.

34. Xristenko V.B. Mejbyudjetnыye otnosheniya i upravleniye regionalnыmi finansami: obzor, problemы, perspektivы. - M., 2002 g.

35. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investisii: Per. s angl.-M: INFRA- M, 1999.-XII.

36. Shoxa’zamiy Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik -T.: Fan, 2012. - 444 b. 37. Yutkina T.F. Nalogi i nalogooblojeniye. - M., 2002g.